



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

**XORAZM JADIDLARINING INSONPARVARLIK VA
MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARINI TADQIQ QILISHDA UMID
BEKMUHAMMAD, SAYYORA SAMANDAR ASARLARINING AHAMIYATI**

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining insonparvarlik va ma'rifatparvarlik qarashlarini tadqiq qilishda Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandar asarlarining ilmiy ahamiyati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: fenomen, jadid, falsafa, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, maktab, jamiyat, meros, metod.

**ЗНАЧЕНИЕ РАБОТ УМИДА БЕКМУХАММАДА И САЙЁРЫ САМАНДАР В
ИССЛЕДОВАНИИ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ВЗГЛЯДОВ
ХОРЕЗМСКИХ ДЖАДИДОВ**

Кутлимуратов Сардорбек Рустамович
Ургенчский RANCH технологический университет, доцент

Аннотация

В данной статье анализируется научное значение работ Умида Бекмухаммада и Сайёры Самандар в исследовании гуманистических и просветительских взглядов хорезмских джадидов. Через данные труды раскрываются философские основы джадидского движения, его социально-просветительская направленность и идеи гуманизма.

Ключевые слова: феномен, джадид, философия, просветительство, гуманизм, школа, общество, наследие, метод.

**THE SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF UMID BEKMUHAMMAD AND
SAYYORA SAMANDAR IN STUDYING THE HUMANISTIC AND ENLIGHTENMENT
VIEWS OF KHOREZM JADIDS**

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
Urganch RANCH Technological University, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the scientific significance of the works of Umid Bekmuhammad and Sayyora Samandar in studying the humanistic and enlightenment views of the Khorezm Jadids. These works reveal the philosophical foundations of the Jadid movement, its socio-educational orientation, and its humanistic ideas.

Keywords: phenomenon, Jadid, philosophy, enlightenment, humanism, school, society, heritage, method.

Jadidchilik harakati, uning g'oyasi, maqsad va vazifalari faqat 19 asr oxiri, 20 asr boshlaridagi jarayonlarga, o'sha davrdagi xalqlar hayotiga ta'sir qilibgina qolmay, fenomen sifatida yuz ellik yildan beri turkiy musulmon xalqlarning barkamol avlodini tarbiyalashda, ularni ma'rifatparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan shakllantirishda katta ahamiyatga ega va bu ezgu

g'oyalar yana necha asrlar shu tarzda insoniylik xislatlari bilan davom etaveradi. Afsuski yaqin yillargacha jadidchilik harakatida muhim o'rin tutuvchi Xorazm jadidlari ma'naviy-axloqiy merosining yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning ahamiyati alohida o'rganilmay kelayotgan edi. Xorazm jadidlarining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik qarashlari, umuman olganda ta'lim va jamiyatga yangilik olib kirgan islohotchilik jarayonlari, namoyandalar faoliyati, ularning adabiy, ilmiy merosida muhim o'rin tutgan g'oyalari ilmiy tahlil qilinmagan edi. Ana shu jihatdan olganda Xorazm jadidlarining ma'rifatparvarlik, insoniylik qarashlarini tadqiq qilishda Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarlarning hammualliflikda yaratgan asarlarining nafaqat tarix, filologiya, pedagogika, sotsiologiya, balki falsafa fanida ham ilmiy ahamiyati kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODI. Mavzuni tadqiq qilishda U.Bekmuhammadning "Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi", S.Samandar, U.Bekmuhammadlarning "Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta'lim va adabiyot", "Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi", "Xorazm jadid maktablari", "Xorazm jadidlarining mustamlakachilik davrlarida qatag'on qilinishi", "Bobooxun Salimov: jadid, davlat arbobi va shoir" monografiyalari, "Matbaachilik asoschisi va jadid ma'rifatparvari", "Xorazm matbaachiligi va matbuoti tarixi" risolalari, "Tarjimon" gazetasidagi maqolalar bir-biriga taqqoslandi hamda ular asosida xolislik, haqqoniylik metodi asosida ilmiy mushohada yuritildi.

MUHOKAMA. Qrimlik ma'rifatparvar siymo Ismoil Gaspralining 1883 yildan "Tarjimon" gazetasini, 1884 yildan jadid maktabini tashkil qilishi va matbuot, ta'lim sohasidan boshlangan jadidchilik g'oyalarining nafaqat Rossiya imperiyasi hududidagi turkiy musulmonlar, balki dunyodagi jarayonlarga ta'siri natijasida bu g'oya, amaliy harakatlar fenomen darajasiga yetdi. Negaki, strategik istiqbolli g'oya, amaliy faoliyat bobida bu qadar dadil, shiddatli, shijoatli fidoyilar tarixda kamdan kam yetishib chiqqan va o'zining amaliy natijasini bergan. Shuningdek, jadidlar tarix uchun g'oyatda qisqa bo'lgan muddat-atigi yigirma-o'ttiz yillik davr ichida xalqning ijtimoiy ongini, jamiyatdagi hayotni keskin o'zgartirib, turkiy millatlarning jipsligi uchun xizmat qildi va uyg'oq darajadagi xalq darajasiga chiqarishga intilishdi. Ya'nikim, chin ma'nodagi uyg'onish aynan jadidlar timsolida yuz berdi. Shu bois ham jadidlarning tabiiy ehtiyoj, davr zarurati tufayli tarix sahnasiga chiqishi, favqulodda hodisa-fenomen hisoblanadi. Akademik Naim Karimov ta'kidlaganidek, "jadidlar, albatta, orzu-armonlari yo'lida o'qtin-o'qtin paydo bo'lib turadigan hayotiy muammolarni yechishdan tashqari jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlariga ham nazar tashlagan va shu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning taraqqiyot darajasi bilan o'z xalqining hayotini taqqoslab, yangi-yangi zalvorli rejalar ishlab chiqqan va niyatlarini ro'yobga chiqarishga intilgan" (1).

Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi jadidchilik harakati Qrimlik Ismoil Gaspralining g'oyalari va tabiiyki Usmoniylar davlatidagi "Yosh turklar" ta'sirida yuzaga keldi. Ya'ni jadidchilik 1890 yillardan dastlab maktab sohasidagi ta'limdagi yangilik sifatida boshlangan edi. Keyinchalik jamiyatdagi barcha sohalar va qatlamlarni qamrab olgan ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga yetdi va Xorazmda ham o'ziga xos uyg'onish mafkurasi, fenomen bo'lib tarixga kirdi.

"Jadid maktabi o'z nomi, pedagogik uslubiga ko'ra dars beriladigan o'z davrining zamonaviy ta'lim dargohi edi. Xorazmda jadid maktablari esa aynan Feruzxon, Asfandiyor va bosh vazir Islomxo'ja, Mamat mahramlarning tashabbuslari va mablag'lari asosida tashkil etilgan va qisqa paytda o'z natijasini bergan jadid maktablari jamiyatdagi jarayonlarning taraqqiy qilishiga, harakatlanuvchi kuchiga aylandi" (2). Professor Zaynobiddin Abdirashidovning tadqiqotiga ko'ra, "1898 yili Xivada Orenburglik Muhammad Vafo va mulla Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin "taassubning ziyoda o'ldig'ini anglayib, Urganch shahrina ketdilar va u yerda usuli savtiya maktabi kushod etdilar".

1907 yil 30 martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda

keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida”gi xabarini ham chop qilgan.

Shuningdek 1905 yilda xon amaldori, taraqqiyparvar Mamat mahram tomonidan ham Deshonqal’adagi uyida jadid maktabi faoliyatini boshlagan. Tabiiyki, ushbu tarixiy ma’lumotlar Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarlarining izlanishlari asosida aniqlangan ilmiy yangiliklardir.

Ma’lumki, jadidlarning ma’rifatparvarligi va insonparvarlik g’oyalari anglash, qolaversa o’zbek adabiyoti, xususan 20 asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitini Avaz O’tar ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

“Avaz O’tar (15.08.1884-1919)-Xorazm ma’rifatparvar shoirlaridan bo’lib, uning asarlarida jadidchilik g’oyalari aks etgan va doimiy ravishda Xorazm jadidlarini qo’llab-quvvatlagan ijodkor. U Qrimda nashr etiladigan “Tarjimon” gazetasini o’qib uni Xorazmda targ’ib qilib borgan va Xivada 1905 yilda jadid maktabi ochgan Mamat mahramning eng yaqin maslakdoshi bo’lgan.

Avaz O’tar Xivalik Polvonniyoz Gadoniyoz o’g’lining Gadikbo’yi hududi To’rt shovvozbobo machit qavmidagi xonadonida tug’ilgandi. Ajdodlari, xususan otasi Polvonniyoz Gadoniyoz o’g’li xon saroyida O’tar lavozimida faoliyat ko’rsatgan va o’z davrining mashhur ijodkorlaridan Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniylar bilan do’st tutingan. Jadidchilik g’oyalari keng targ’ib etish Avaz O’tar ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Bu uning “Til”, “Maktab”, “Xalq”, “Fidoyi xalqim”, “Topar ekan qachon?” degan she’rlarida yaqqol ko’rinadi” (3).

Avaz O’tarning hajviy asarlarida esa Rossiyaning mustamlakachi va mahalliy amaldorlari, boylik orttirish yo’lida aldanchilik, riyokorlik qiluvchi boylar, sudxo’rlar va shularga o’xshash razil shaxslarning qilmishlari fosh etilgan.

Avaz O’tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning keskinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, falakni “g’addor”, zamonani esa “kaj” deb ataydi. Shoir ijtimoiy ruhdagi she’rlarida o’zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilgan. “Hurriyat”, “Sipohiylarga”, “Xalq”, “Topar ekan qachon?” “Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga” kabi qator asarlarida Avaz O’tarning kelajak xususidagi fikrlari o’z aksini topgan.

Xorazmdagi jadidchilik harakati va ular mansub bo’lgan siyosiy harakat-“Yosh xivaliklar”ning namoyondalari orasida asosan Boboovun Salimov boshqa safdoshlaridan ijodkorligi bilan alohida ajralib turgan. Ya’ni, Polvonniyozhoji Yusupov, Xudoybergan Devonov, Nazir Sholikorov va boshqa jadid liderlar kabi uning ham siyosiy faoliyati kurashlar, islohotchilik g’oyalari bilan o’tgan bo’lsada, undan asosiysi boy ijodiy, ma’naviy meros qoldi.

“Boboovun Salimov she’riyatida jadidlar g’oyalari singari ma’rifat, ta’lim mavzulari yoritilgan. Shuningdek, u jamiyatda ro’y berayotgan salbiy munosabatlarni yo’qotish uchun ham mudroq g’ururni uyg’otish lozimligini anglab yetgandi. Shu bois ham Boboovunning ushbu she’rida jadidlarning g’oyasi aks etgandi”:

Xazon faslida bulbuldek,
Dil afgor o’lg’on o’xshaydur.
Jaholat dardiga barcha
Giriftor o’lg’on o’xshaydur,

“Ojizo” taxallusi bilan ijod qilgan Boboovun Salimovning boshqa she’rlarida ham mustamlakachilik asorati davriga xos mahzunlik, jamiyatdagi voqelikka real baho berish aks ettirilgan. Ayniqsa uning “Maktab” sarlavhali she’ri xalq ta’limi uchun sidqidildan faoliyat ko’rsatgan jadid ziyolisining yorqin qiyofasini ko’rsatadi:

Xushdur ne balo havoyi maktab,
Jon o’lsa ravo fidoyi maktab.
Maktab demaki madori ilmdir,
To ilm iladur baqoyi maktab “(4)...

Boboovun Salimovning safdoshi bo’lgan Husayinbek Muhammadmurodov xonlikdagi nufuzli davlat arbobi Matmurod devonbegining o’g’li edi. Ana shunday mavqega ega sulola vakili

20 asr boshlaridagi Xorazm jadid liderlaridan biri bo'lib, "Yosh xivaliklar" harakatining asoschisi va 1917 yil aprelida tashkil etilgan hukumat raisi qilib saylangan hamda islohotlarni amalga oshirishga kirishgandi.

Feruzxon davridan boshlab saroydagi nafaqat amaldorlar, balki ijodkorlar orasida ham o'z she'riyati bilan e'tibor topgan Husayinbek Feruzxonning tavsiyasi bilan o'ziga Naziriy taxallusini tanlagandi.

Bekjon Rahmondek jadidlarning ilg'or vakili esa Fitrat, Cho'lpon, Zaki Validi singari ijod-u ilm ahli bilan maslakdosh do'st edi. U "Inqilob quyoshi" nomi bilan Xorazmda matbuotga asos solgan ijodkor va 1923 yilda 580 ta Xorazmning xalq maqollarini to'plab "Otalar so'zi" nomi bilan nashr ettirgan folklorshunos ham bo'lgan. Bekjon Rahmonning mazkur to'plamida "ertaga osh qolsa-davlat, ish qolsa-mehnat", "Davlat-og'izburchilik", "Rohat-mehnatning orqasida", "Tek turgan to'q yurar", "Bir kun tuz yegan yerga 40 kun salom", "Ota-ona taxt etar-baxt eta bilmas", "O'tni kavlasang o'char, qo'shnini kovlasang ko'char", "O'g'ri boyimas, yolg'onchi yolchimas", "Onasini ko'r qizini ol, qirag'ini ko'r, bo'zini ol" singari tarbiyaviy, pand-nasihat ruhidagi maqollar, hikmatli so'zlar mavjud.

Ya'ni, Bekjon Rahmon asarlari Xorazm jadidlarining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik qarashlarini aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek 1925 yilda u Muhammad Yusuf Devonzoda bilan hammualliflikda "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobini Moskva shahrida nashr qildirgandi. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Bekjon Rahmon hamda Muhammad Yusuf Devonzodalarning asaridan g'oyat ta'sirlanganini yozgan va ushbu kitobning musiqashunoslikda tutgan o'rniga g'oyat yuksak baho bergan edi. Musiqqa nazariyasi va tarixiga doir eng e'tiborli manba bo'lgani bois, B. Belyayev hamda G. Former kabi rus va xorij musiqashunoslari ham Bekjon Rahmon, Devonzodalarning asariga murojaat qilishgandilar.

Shu yili yana "Xilvati so'fiyo" asarini ham yozib boshlaydi.

Ma'lumki, o'zbek jadid adabiyotining namoyandalaridan biri va 1910-13 yillarda Xorazmda faoliyat ko'rsatgan pedagog, shoir Muhammadsharif So'fizoda bo'lib, o'zbek demokratik va ma'rifatparvarlik davri adabiyoti an'alarini davom ettirgan ijodkor edi. U uch yil davomida Xorazmdagi jadid maktabida faoliyat ko'rsatibgina qolmay, jadidlar g'oyasini aks ettirgan adabiy asarlar yaratgan va o'z davridagi adabiy muhitning faol ijodkori edi. Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarlarning beshta monografiyasi va ensiklopediyada davr va mavzudan kelib chiqqan holda So'fizodaning hayoti, Xorazmdagi pedagoglik faoliyati va tabiiyki vohada yaratgan ijodiga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Shu singari Xorazm jadidlarining "Yosh xivaliklar" harakati (partiyasi)ga a'zo bo'lgan, shuningdek vohadagi ijtimoiy siyosiy, madaniy, adabiy jarayonlarning faollaridan Komil Devoni, Safo Mug'anniylar hayoti, ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rnini ham "Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi" va Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammadlarning beshta monografiyasida tahlil qilingan.

NATIJALAR. Shu tariqa deyarli 2024 yilgacha bo'lgan davrda Xorazm jadidchilik harakati, namoyandalar faoliyati, ijodiy, ilmiy merosi va jadidlarning ma'rifatparvarlik, insonparvarlik qarashlari, bu boradagi g'oya, maqsadlari faqatgina ayrim maqolalar tarzida ifodalanib kelinardi. 2024-2025 yillardagi qizg'in ilmiy-ijodiy izlanishlar sabab esa atigi ikki yil ichida bir ensiklopediya, beshta monografiya, ikkita risola va ellikka yaqin maqolalar Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarlarning hammuallifligida yaratildi va jadidshunoslikka qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Shu boisdan ham ularning ilmiy-ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari haqida "Tamaddun nuri", "Ilm vaqti", "Hurriyat" singari respublika nashrlarida ijobiy taqrizlar, e'tirof qilingan maqolalar chop etildi. Bularning bari ko'p yillar davomida O'zbekiston Milliy arxivi, Xorazm viloyat davlat arxivi, Xiva Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi fondlaridagi izlanishlar, xorij va o'zbek ilm-u fanidagi adabiyotlarni bir-biriga taqqoslash, "Tarjimon" va shu singari nashrlardagi maqolalarni qunt bilan tahlil etish tufayli yuzaga kelgan aqliy mehnat mahsulidir.

XULOSA. Shu boisdan ham, Xorazm jadidlari faoliyatiga ilmiy-falsafiy va ma'naviy-

mafkuraviy jihatdan yondoshib, ma'naviy-axloqiy qarashlarining yoshlarda g'oyaviy-tarbiyaviy immunitetini shakllantirishda tabiiyki voha jadidchiligi, uning Buxoro, Turkiston jadidchiligidan farqli jihatlari, o'xshash taraflarini anglash, jadidlarning jamiyatga ta'siri, adabiy, ilmiy merosi katta ahamiyatga ega. Bu borada Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarlar hammuallifligida yaratilgan ensiklopediya, monografiyalar, risolalar va maqolalar esa jadidshunoslikda muhim o'rin tutadi va ularning asarlarisiz 19 asr oxiri, 20 asr boshlaridagi jarayonlarni to'laqonli tasavvur qilish qiyin. Shu jihatdan olganda Xorazm jadidlarining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik qarashlarini tadqiq qilishda ham ular yaratgan asarlar ilmiy ahamiyati, teran tahlili bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Naim Karimov, "Tafakkur" jurnali, 2010-yil 1-son, 5-bet.
2. Umid Bekmuhammad, "Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi", "Milleniumus print" nashriyoti, Urganch, 2024-yil, 4-bet.
3. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad, "Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta'lim va adabiyot", "Milleniumus print" nashriyoti, Urganch, 2024-yil, 68-bet.
4. Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandar, "Bobooxun Salimov: jadid, davlat arbobi va shoir", "Milleniumus print" nashriyoti, Urganch, 2024-yil, 180-bet.